

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLER VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOIYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF FORMING AN EFFECTIVE SYSTEM FOR THE USE OF TRANSBOUNDARY WATERS IN PUBLIC ADMINISTRATION

Shodmonov Farrukh Fayzullaevich

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Department of Legal Sciences Public Administration Program

2nd Year Master's Degree Student

E-mail: shodmonovf66@gmail.com

Abstract. This article focuses on the issues of developing an effective system for the utilization of transboundary water resources within the framework of modern public administration. The study analyzes international experiences, identifies existing problems, and proposes advanced solutions. Particular attention is given to the importance of strengthening the legal framework, implementing institutional reforms, and introducing modern technologies. These approaches are shown to contribute not only to the fair distribution of water resources but also to ensuring economic stability and maintaining ecological balance.

Keywords: transboundary water resources, public administration, water policy, Central Asia, climate change, water distribution, legal reforms, digital technologies, international cooperation, environmental security.

DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Huquqiy fanlar kafedrası Davlat boshqaruvi yo'nalishi

2-Kurs Magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy davlat boshqaruvi doirasida transchegaraviy suv resurslaridan samarali foydalanish tizimini shakllantirish masalalariga bag'ishlanadi. Tadqiqotda xalqaro tajribalar tahlil qilinib, mavjud muammolar aniqlanadi va ularga yechim sifatida ilg'or takliflar ishlab chiqiladi. Xususan, huquqiy bazani mustahkamlash, institutsional islohotlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati chuqur o'rganiladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat suv resurslarini adolatli taqsimlashni ta'minlash, balki iqtisodiy barqarorlik va ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qilishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: transchegaraviy suv resurslari, davlat boshqaruvi, suv siyosati, Markaziy Osiyo, iqlim o'zgarishi, suv taqsimoti, huquqiy islohotlar, raqamli texnologiyalar, xalqaro hamkorlik, ekologik xavfsizlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N68>

Kirish. Suv resurslari zamonaviy dunyoda geosiyosiy, iqtisodiy va ekologik muvozanatning asosiy omillaridan biriga aylandi. Xususan, transchegaraviy suv oqimlari bo'yicha davlatlararo munosabatlar so'nggi o'n yilliklarda tobora murakkablashib, global miqyosda e'tibor markaziga ko'tarildi. UNESCOning 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 313 ta transchegaraviy daryo va ko'l havzalari hamda 468 ta transchegaraviy suv omborlari mavjud bo'lib, ular global chuchuk suv oqimining qariyb 60 foizini tashkil etadi va 3 milliarddan ortiq odamning hayotiy ehtiyojlarini ta'minlaydi. Biroq, 153 ta davlatdan faqat 43 tasi o'zining

transchegaraviy havzalari yuzasidan 90% yoki undan ko'proq hududni qamrab olgan operatsion kelishuvlarga ega [1; 1-5-b.]. Bu daryolar orasida Nil, Mekong, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik suv havzalari alohida ahamiyatga ega, chunki ular bir nechta davlatlar hududidan oqib o'tadi va har bir mamlakatning suvga bo'lgan talabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Nil daryosi bo'yicha Misr, Sudan va Efiopiya o'rtasidagi nizolar xalqaro siyosiy muhokamalarda markaziy o'rin tutmoqda.

Efiopiyaning "Buyuk Uyg'onish" to'g'onini qurishi Misr va Sudan uchun suv ta'minotidagi tahdid sifatida qaralmoqda, chunki Nil daryosi bu davlatlar iqtisodiyoti uchun hayotiy ahamiyatga ega. Xuddi shunday holat Markaziy Osiyoda ham kuzatiladi. Amudaryo va Sirdaryo daryolari besh davlat – O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston – hududidan oqib o'tadi va mintaqadagi 74 milliondan ortiq aholining suvga bo'lgan ehtiyojini qoplaydi. Biroq, bu daryolar suvining taqsimoti doimiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Masalan, Tojikiston va Qirg'iziston suvni gidroenergetika maqsadlarida ishlatishga intilsa, O'zbekiston va Qozog'iston qishloq xo'jaligini sug'orish uchun suvga muhtoj.

Transchegaraviy suv resurslari bilan bog'liq muammolar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlariga olib keladi, balki ekologik xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Iqlim o'zgarishi natijasida daryo oqimlari kamayishi, suv tanqisligi va Orol dengizi kabi ekologik falokatlar Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining kelajagiga jiddiy tahdid solmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga qaraganda mintaqaning ba'zi qismlarida 2050-yilgacha yuzaki suv manbalari yarmigacha kamayishi mumkin. Shu bilan birga, suvga bo'lgan talab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va sanoat ehtiyojlarining o'sishi sababli ortishi kutilmoqda. Iqlim o'zgarishi bir nechta iqtisodiy ta'sirlar keltirib chiqarishi mumkin, va Markaziy Osiyo kelajakda suv tanqisligi xavfidan eng ko'p azob chekish mumkin bo'lgan dunyodagi eng zaif mintaqalardan biri deb hisoblanadi [2; 1-2-b.]. Bu esa nafaqat qishloq xo'jaligi va energetika sohasiga, balki aholining turmush darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, suv resurslarini samarali boshqarish va adolatli taqsimlash masalasi davlatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu maqola transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda samarali tizimni shakllantirish masalalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda huquqiy asoslar, institutsional mexanizmlar va texnologik yechimlarning ahamiyati o'rganiladi. Xususan, xalqaro tajribalar, masalan, Isroilning suv tejovchi texnologiyalari yoki Yevropa Ittifoqining transchegaraviy daryolar bo'yicha hamkorlik modellari Markaziy Osiyo uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan namunalar sifatida ko'rib chiqiladi.

Transchegaraviy suvlar masalasi global miqyosda davlatlararo hamkorlikni talab qiladi. Markaziy Osiyoda suv resurslarining taqsimoti bo'yicha kelishmovchiliklar mintaqaning geosiyosiy barqarorligiga tahdid solmoqda. Shu bois, ushbu muammoni hal qilish uchun nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro darajada kompleks yondashuv zarur. Tadqiqotning maqsadi – mavjud muammolarni aniqlash va ularga yechim sifatida amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

Asosiy qism. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda huquqiy asoslar davlatlararo munosabatlarni tartibga solish va suv taqsimotidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro huquqning ushbu sohadagi asosiy hujjatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) 1992-yildagi "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi konvensiyasi (Helsinki konvensiyasi) va

1997-yildagi “Xalqaro suv yo‘llaridan foydalanish huquqi to‘g‘risida”gi konvensiyasidir. Helsinki konvensiyasi suv resurslaridan foydalanishda ekologik muvozanatni saqlash va davlatlar o‘rtasida adolatli hamkorlikni ta‘minlashni maqsad qiladi. 1997-yilgi konvensiya esa suv yo‘llaridan foydalanishda “oqilona va teng huquqli” tamoyilini belgilab, davlatlarga o‘zaro zarar yetkazmaslik majburiyatini yuklaydi. Ushbu hujjatlar global miqyosda 263 ta transchegaraviy daryo va ko‘lni boshqarish uchun huquqiy asos yaratadi, ular dunyodagi suv oqimining 60 foizini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Amudaryo va Sirdaryo daryolari besh davlat hududidan oqib o‘tadi va aholining suv ta‘minotida muhim ahamiyatga ega. Biroq, ushbu mintaqada xalqaro huquqiy normalarni qo‘llashda sezilarli muammolar mavjud. Masalan, 1990-yillarda sobiq Sovet Ittifoqi davrida tuzilgan suv taqsimoti bo‘yicha shartnomalar hozirgi sharoitlarga to‘liq mos kelmaydi. Tojikiston va Qirg‘iziston gidroenergetika loyihalarini rivojlantirish uchun suv omborlarini qurayotganda, O‘zbekiston va Qozog‘iston qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv oqimining barqarorligini ta‘minlashni talab qiladi. Bu holat mintaqada huquqiy vakuumning mavjudligini ko‘rsatadi, chunki xalqaro konvensiyalar to‘liq ratifikatsiya qilinmagan yoki amalda qo‘llanilmayapti.

O‘zbekiston 2020-yilda BMTning suv resurslarini barqaror boshqarish bo‘yicha strategik dasturlarida faol ishtirok etishni boshladi. Bu qadam mintaqada huquqiy islohotlarni boshlash uchun muhim imkoniyat yaratdi. Masalan, O‘zbekiston 2021-yilda “Suv resurslarini boshqarish strategiyasi”ni qabul qilib, suv taqsimoti va undan foydalanishda xalqaro tajribani joriy etishga harakat qilmoqda. Xalqaro miqyosda esa turli muvaffaqiyatli tajribalar mavjud. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida Reyn daryosi bo‘yicha tuzilgan komissiya 1950-yildan beri Germaniya, Fransiya va Niderlandiya o‘rtasida suv resurslarini muvaffaqiyatli boshqarib kelmoqda. Ushbu model davlatlararo muzokaralar va huquqiy majburiyatlarning uyg‘unligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, Isroilning suv boshqaruvi tajribasi Markaziy Osiyo uchun muhim o‘rnak bo‘lishi mumkin. Isroilda suv tejovchi texnologiyalar, xususan, tomchilatib sug‘orish tizimlari orqali ichimlik suvi tanqisligi deyarli butunlay bartaraf etilgan. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, Isroil sug‘orishda ishlatiladigan suvning 90 foizini qayta ishlash orqali qayta foydalanishga muvaffaq bo‘lgan. Bu tajriba Markaziy Osiyoda suv resurslarining samaradorligini oshirish uchun huquqiy va texnologik yondashuvlarni birlashtirish imkonini beradi.

Dunyoda transchegaraviy suv havzalarining 40 foizi Afrika qit‘asida joylashgan bo‘lib, Nil daryosi bu qit‘adagi eng muhim misollardan biridir. Markaziy Osiyoda esa Amudaryo havzasi yiliga o‘rtacha 79 kub kilometr suv oqimini ta‘minlaydi, lekin iqlim o‘zgarishi tufayli bu ko‘rsatkich 2030-yilga kelib 15 foizga qisqarishi mumkin [3; 21-22-b.]. Shu bilan birga, mintaqada suv bo‘yicha 20 dan ortiq shartnoma mavjud bo‘lsa-da, ularning aksariyati amalda to‘liq ishlamaydi. Huquqiy asoslarning zaifligi transchegaraviy suv resurslari bo‘yicha nizolarni yanada chuqurlashtiradi. Markaziy Osiyoda sobiq Ittifoq davridagi shartnomalar yangi geosiyosiy sharoitlarga moslashtirilmasa, davlatlar o‘rtasidagi ishonchsizlik ortadi. Xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish va mahalliy qonunchilikka integratsiya qilish bu muammoni hal qilishda muhim qadam bo‘lardi.

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda huquqiy asoslarni mustahkamlash nafaqat mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlaydi, balki iqtisodiy va ekologik muammolarni ham yumshatadi. Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro tajribadan foydalangan holda, o‘zaro manfaatlar

va global normalarni hisobga olgan yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishi zarur. Bu jarayonda O'zbekistonning BMT dasturlaridagi faolligi mintaqaviy hamkorlik uchun katalizator bo'la oladi.

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish jarayoni bir qator murakkab muammolarni o'z ichiga oladi, ular nafaqat davlatlararo munosabatlarga, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikka ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mintaqasi bu muammolarning eng yaqqol namoyon bo'ladigan hududlaridan biri sifatida e'tirof etiladi, chunki Amudaryo va Sirdaryo daryolari besh davlatning suv ta'minoti uchun asosiy manba hisoblanadi. Ushbu bo'limda transchegaraviy suv boshqaruvidagi asosiy to'siqlar tahlil qilinadi va ularning oqibatlarini chuqur ko'rib chiqiladi.

Suv taqsimotidagi kelishmovchiliklar. Suv resurslarining notekis taqsimlanishi transchegaraviy daryolar bo'yicha eng katta muammolardan biridir. Markaziy Osiyoda bu holat yuqori oqim davlatlari (Tojikiston va Qirg'iziston) bilan quyi oqim davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston) o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligida yaqqol ko'rinadi. Yuqori oqim davlatlari suvni gidroenergetika uchun ishlatishga ustunlik bersa, quyi oqim davlatlari qishloq xo'jaligini sug'orish uchun suv oqimining barqarorligiga muhtoj. Masalan, Tojikistonning Rog'un GES loyihasi O'zbekiston tomonidan qishloq xo'jaligi uchun suv yetishmasligi xavfi sifatida qaraladi. Ma'lumotlariga ko'ra, Amudaryo havzasining yillik oqimi 78.5 kub kilometrni tashkil etadi, lekin bu suvning 80 foizdan ortig'i sug'orishga sarflanadi, bu esa energetika ehtiyojlari uchun resurslarning cheklanganligini ko'rsatadi [4; 3-b.]. Dunyo miqyosida ham shunga o'xshash misollar mavjud. Nil daryosi bo'yicha Efiopiyaning "Buyuk Uyg'onish" to'g'oni Misrda suv tanqisligi xavfini oshirgan bo'lib, 2021-yilda bu masala BMT Xavfsizlik Kengashida muhokama qilingan [5; 1-b.]. Bu holat suv taqsimotidagi kelishmovchiliklarning nafaqat mintaqaviy, balki global geosiyosiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Iqlim o'zgarishlari va ekologik tahdidlar. Iqlim o'zgarishi transchegaraviy suv resurslariga tobora jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy Osiyoda muzliklarning erishi va daryo oqimlarining kamayishi suv ta'minotidagi muvozanatni buzmoqda. Masalan, Sirdaryo daryosining oqimi so'nggi 30 yilda 20 foizga qisqargan. Bu jarayon Orol dengizining qurishi bilan yanada murakkablashdi – 1960-yillarda 68 ming kvadrat kilometr maydonni egallagan bu dengiz hozirda o'z hajmining 10 foiziga qisqardi [6; 6-b.]. Orolning qurishi nafaqat ekologik falokatga, balki mintaqadagi iqlim sharoitlarining yomonlashuviga, chang bo'ronlari va tuproq sho'rlanishiga olib keldi. Iqlim o'zgarishi global miqyosda ham muammo sifatida ko'zga tashlanadi. Masalan, Mekong daryosi bo'yicha Xitoyning yuqori oqimdagi to'g'onlari Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uchun suv tanqisligini keltirib chiqarmoqda. IPCC hisobotlariga ko'ra, 2050-yilga kelib dunyodagi transchegaraviy daryolar oqimining 30 foizgacha qisqarishi kutilmoqda [7; 179-180-b.].

Texnologik imkoniyatlarning yetishmovchiligi. Suvdan samarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarning yetishmasligi Markaziy Osiyoda jiddiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Masalan, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi uchun ishlatiladigan suvning 50 foizdan ortig'i eski sug'orish tizimlari tufayli isrof qilinadi [8; 53-57-b.]. Tomchilatib sug'orish kabi "aqlli" texnologiyalar mintaqada keng joriy etilmagan, bu esa suv resurslarining samaradorligini pasaytiradi. Xuddi shunday, suv oqimini monitoring qilish uchun sun'iy intellekt va IoT kabi zamonaviy vositalar deyarli qo'llanilmaydi. Qiyoslash uchun, Isroilda

suvning 90 foizi qayta ishlanib, qayta foydalanishga yo'naltiriladi, bu esa texnologik innovatsiyalarning muammolari hal qilishdagi muhim rolini ko'rsatadi. Markaziy Osiyoda esa infratuzilmaning eskirganligi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi bu jarayonni sekinlashtirmoqda. Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligi suv iste'molining 90 foizini tashkil etadi, lekin samaradorlik 40 foizdan oshmaydi [9; 6-b.]. Orol dengizining qurishi natijasida yiliga 40 million tonnadan ortiq tuzli chang havoga tarqaladi, bu esa salomatlik va ekologiyaga zarar yetkazmoqda. Nil daryosi bo'yicha Misr yiliga 55,5 milliard kub metr suv olish huquqini da'vo qiladi, lekin Efiopiya to'g'oni bu hajmni 20 foizga qisqartirishi mumkin. Suv taqsimotidagi kelishmovchiliklar davlatlar o'rtasida ishonchsizlikni oshiradi va mintaqaviy hamkorlikni qiyinlashtiradi.

Iqlim o'zgarishi bu muammolarni yanada keskinlashtirib, suv resurslarining kelajagini xavf ostiga qo'ymoqda. Texnologik cheklovlar esa mavjud resurslardan samarali foydalanishga to'sqinlik qiladi. Agar ushbu muammolar yechimsiz qolsa, iqtisodiy zarar bilan birga ekologik falokatlar ham kengayadi. Transchegaraviy suv boshqaruvidagi muammolar kompleks yondashuvni talab qiladi. Kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun huquqiy va institutsional islohotlar, iqlim o'zgarishiga qarshi choralar sifatida ekologik strategiyalar va texnologik imkoniyatlarni rivojlantirish uchun investitsiyalar zarur. Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro tajribadan (masalan, Isroil yoki Yevropa Ittifoqi modellari) foydalangan holda, ushbu muammolarni yumshatishi mumkin.

Samarali tizimni shakllantirish bo'yicha takliflar. Transchegaraviy suv resurslaridan samarali foydalanish tizimini shakllantirish zamonaviy davlat boshqaruvining eng dolzarb vazifalaridan biridir. Markaziy Osiyo kabi suvga muhtoj mintaqalarda bu masalani hal qilish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki ekologik muvozanat va davlatlararo hamkorlikni mustahkamlaydi. Ushbu bo'limda transchegaraviy suv boshqaruvidagi muammolarni bartaraf etish uchun uchta asosiy yo'nalish – raqamli texnologiyalar, xalqaro hamkorlik va huquqiy-institutsional islohotlar – bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy raqamli texnologiyalar suv resurslarini monitoring qilish, taqsimlash va undan samarali foydalanishda inqilobiy o'zgarishlar keltirishi mumkin. Sun'iy intellekt (AI) va Internet of Things (IoT) kabi vositalar suv oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish va bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, AI asosidagi modellar iqlim o'zgarishi ta'sirini oldindan taxmin qilib, daryo oqimlarining mavsumiy o'zgarishlarini aniq prognoz qilishi mumkin. Jahon bankining 2022-yilgi hisobotiga ko'ra, raqamli monitoring tizimlari suv isrofgarchiligini 25 foizgacha kamaytirishi isbotlangan. Markaziy Osiyoda bu texnologiyalarni Amudaryo va Sirdaryo havzalarida joriy etish mintaqaviy suv taqsimotini optimallashtiradi. Masalan, IoT sensorlari suv omborlari va sug'orish kanallaridagi suv hajmini aniq o'lchab, ma'lumotlarni davlatlar o'rtasida almashish uchun markazlashtirilgan platformaga uzatishi mumkin. Xuddi shunday, Isroilda qo'llaniladigan "aqlli" sug'orish tizimlari O'zbekistonning paxta va g'alla maydonlarida sinovdan o'tkazilishi mumkin. FAO ma'lumotlariga ko'ra, tomchilatib sug'orish suv iste'molini 60 foizgacha tejashga yordam beradi.

Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash. Transchegaraviy suv resurslari bo'yicha davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish kelishmovchiliklarni bartaraf etishning asosiy yo'lidir. Markaziy Osiyoda suv bo'yicha mavjud 20 dan ortiq shartnoma bo'lsa-da, ularning aksariyati eskirgan yoki amalda to'liq bajarilmaydi. Shu sababli, yangi huquqiy mexanizmlar ishlab

chiqish va mavjud shartnomalarni takomillashtirish zarur. Masalan, Yevropa Ittifoqidagi Reyn daryosi komissiyasi kabi mintaqaviy tashkilot tuzilishi mumkin. Bu komissiya davlatlar o'rtasida suv taqsimoti bo'yicha muzokaralar olib boradi, monitoring ma'lumotlarini umumlashtiradi va nizolarni hal qilishda vositachi sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Osiyo Taraqqiyot Banki) bilan hamkorlikni kengaytirish moliyaviy resurslarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy islohotlar va institutsional o'zgarishlar. Suv resurslarini boshqarishda samarali tizim yaratish uchun huquqiy bazani mustahkamlash va institutsional imkoniyatlarni kengaytirish lozim. Markaziy Osiyo davlatlari BMTning 1992 va 1997-yilgi konvensiyalarini to'liq ratifikatsiya qilib, mahalliy qonunchilikka integratsiya qilishi kerak. Shu bilan birga, suv boshqaruvi bo'yicha maxsus agentliklar tashkil etilishi va ularning vakolatlari aniq belgilanishi zarur. Masalan, O'zbekistonda 2021-yilda qabul qilingan "Suv resurslarini boshqarish strategiyasi" doirasida Suv xo'jaligi vazirligining funksiyalari kengaytirildi, ammo bu agentlikning mintaqaviy hamkorlikdagi roli hali ham cheklangan. Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, Avstraliyada Murray-Darling havzasi boshqaruvi muvaffaqiyatli model sifatida e'tirof etiladi. Bu tizimda mustaqil boshqaruv organi suv kvotalarini belgilaydi va fermerlar bilan davlat o'rtasida adolatli taqsimotni ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar suv resurslaridan foydalanishda shaffoflik va samaradorlikni ta'minlaydi, ammo ularni joriy etish uchun katta moliyaviy va texnik resurslar talab qilinadi. Xalqaro hamkorlik kelishmovchiliklarni yumshatadi, lekin davlatlar o'z suverenitetini himoya qilishga intilishi bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin.

Xulosa. Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish masalasi zamonaviy davlat boshqaruvining eng muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri sifatida global miqyosda e'tirof etilmoqda. Markaziy Osiyo kabi suv resurslari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlik uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan mintaqalarda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Amudaryo va Sirdaryo daryolari 74 milliondan ortiq aholining suv ta'minotini ta'minlasa-da, ularning taqsimoti va boshqaruvidagi muammolar mintaqaviy hamkorlikka jiddiy to'siq bo'lib kelmoqda. Ushbu maqola davomida transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarish tizimini shakllantirishning huquqiy, institutsional va texnologik jihatlari tahlil qilindi, mavjud muammolar aniqlandi va ularga yechim sifatida amaliy takliflar ilgari surildi.

Transchegaraviy suv resurslari masalasini yechish uchun texnologik innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik muhim bo'lsa-da, davlatlarning siyosiy iroda va o'zaro ishonchga tayanishi asosiy omil hisoblanadi. Huquqiy islohotlar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlasa-da, ularni amalda qo'llashda muvofiqlashtirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi sezilarli to'siq bo'lib qolmoqda. Transchegaraviy suv resurslarini samarali boshqarish tizimini yaratish uchun Markaziy Osiyo davlatlari uchta strategik yo'nalishga e'tibor qaratishi zarur: raqamli texnologiyalar orqali optimallashtirish, xalqaro hamkorlik orqali integratsiya va huquqiy islohotlar orqali shaffoflik. Ushbu yondashuvlar suv tanqisligini yumshatib, mintaqaviy rivojlanishga xizmat qiladi. Kelgusida takliflar pilot loyihalar orqali sinovdan o'tkazilishi va xalqaro qo'llab-quvvatlash bilan amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. UN-Water. (2024). Progress on Transboundary Water Cooperation – 2024 Update. Geneva: United Nations.

2. World Bank. (2024). Investing in Water Security in Europe and Central Asia. Washington, DC: World Bank.
3. UNESCO. (2021). Transboundary Water Governance and Climate Change. Paris: UNESCO.
4. Severskiy, I., & Chervanyov, I. (2020). Assessment of Water Resources Availability in Amu Darya River Basin Using GRACE Data. Journal of Hydrological Sciences.
5. United Nations Security Council. (2021). Security Council Press Statement on Grand Ethiopian Renaissance Dam. New York: United Nations.
6. UNESCO. (2020). The Aral Sea Basin: A Story of Ecological Disaster. Paris: UNESCO.
7. IPCC. (2007). Fourth Assessment Report: Working Group II – Impacts, Adaptation and Vulnerability.
8. FAO. (2021). Aquastat Report on Uzbekistan Water Use in Agriculture.
9. World Bank. (2022). Central Asia Water and Energy Program (CAWEP).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).